

TERMIZ SHAHRIDA OILAVIY TADBIRKORLIK QO'LLAB- QUVVATLANMOQDA



TERMIZ SHAHRIDA OILAVIY TADBIRKORLIK QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Surxondaryo viloyatida qulay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5228-qaroriga asosan, "Pattakesar" mahallasi aholisiga kredit asosida 50 dona kurka va 300 dona tovuq yetkazib berildi.

"Pattakesar" MFY hokim yordamchisining tavsiyasi bilan mahallada "Ayollar daftari"dagi ayollarga tikuv mashinasi hamda yana bir fuqaroga non pishirish pechi va xamir qorish uskunasi topshirildi.

Shuningdek, "Jo'yjangan" mahallasidagi yakka tartibdagi tadbirkor Ulug'bek Begalievga bog'dorchilik va gul ko'chatlarini yetishtirishi uchun kredit asosida har xil turdag'i gul ko'chatlari olib berildi.







